

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Tahrir №1	Ro'yxat №	45 dan 1-sahifa



TASDIQLANGAN
Bosh direktorning
2026-yil 27-iyuldagi 138-son buyrug'i bilan

**«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MChJ AVTOMOBIL
SHINALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARI**

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 2-sahifa

Mundarija

1 Maqsadi, faoliyat sohasi, umumiy qoidalar	3
2 Atamalar	4
3 Shinalarni tamg'lash	5
4 Shinalarni qabul qilish	8
5 Shinalarni tashish va saqlash	9
6 Shinalarni omborda yuklash va tushirish	9
7 Shinalarni saqlash	10
8 Avtomobillarni shinalar bilan butlash (komplektlash)	13
9 Shinalarni montaj va demontaj qilish qoidalari	16
10 Avtotransport vositalari egalari tomonidan shinalarga qarov	19
11 Shinalardan foydalanishni taqiqlovchi kamchiliklar ro'yxati	28
12 E'tirozlar (reklamatsiyalar)	30
13 Shinalarning jismoniy eskirishini baholash metodikasi	31
14 Ishlab chiqaruvchining javobgarligi	32
15 Shinalarni utilizatsiya qilish	34
16 1-ilova. Avtomobillarda shinalar o'rini almashtirishning ehtimoliy sxemalari -	35
17 2-ilova. Protektor naqshining ruxsat etilgan eng ko'p eskirish maydonini va uni o'lchash joyini aniqlash	36
18 3-ilova. Avtomobillarga yuklarni joylashtirish va ortiqcha yuklanishning shinalar resursidan foydalanishga ta'siri	37
19 4-ilova. Bosim me'yorlarini buzishning shinalar resursidan foydalanishga ta'siri -	38
20 5-ilova. Hisobga olish kartochkasi	39
21 6-ilova. E'tirozlar (reklamatsiyalar) uchun ma'lumotlar	40
22 7-ilova. Shinamontaj ishlarini o'tkazish bo'yicha yo'riqnomalar	41
23 O'zgarishlarni ro'yxatga olish varag'i	46

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalar		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 3-sahifa

1. MAQSADI, FAOLIYAT SOHASI, UMUMIY QOIDALAR

1.1 «Birinci rezinotexnika zavodi» XK MChJ avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalar (bundan buyon matnda «Qoidalar») «Birinci rezinotexnika zavodi» XK MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobil shinalariga xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish tartibini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjatda bundan buyon «shinalar» deganda faqat «Birinci rezinotexnika zavodi» XK MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan shinalar tushuniladi.

1.2 Qoidalar keng doiradagi shaxslar – ham jismoniy, ham yuridik shaxslar uchun mo'ljallangan.

1.3 Shinalardan foydalanish qoidalariga rioya etish barcha shina egalari bo'lgan shaxslar uchun majburiydir.

1.4 Ushbu hujjatdagi «Haydovchi», «Shina egasi», «Transport vositasi egasi», «Iste'molchi», «Ariza beruvchi», «Shinamontaj ustasi» kabi so'zlar, garchi hayotda ular o'zaro turli munosabatlar shakllari bilan bog'langan yoki umuman bevosita bog'lanmagan turli shaxslar bo'lishi mumkinligiga qaramay, ushbu yo'riqnoma talablarini bajarish majburiyatlari nuqtai nazaridan bir xil subyektlar hisoblanadi. Shina egasi o'z shinalarini yoki ularga bo'lgan huquqlarni boshqa birovga (transport vositasi egasiga, haydovchiga, vakilga, shinamontaj ustasiga yoki boshqa shaxslarga) topshirgan (ishongan) vaqtda, u (shina egasi) ushbu Qoidalarga rioya etish bo'yicha barcha majburiyatlarni ham o'tkazadi va ushbu shaxslarni tegishli ravishda xabardor qilish hamda ushbu Qoidalarni yetkazish uchun javobgar bo'ladi.

1.5 Ushbu hujjatdagi «Avtomobil» so'zi va u bilan bog'liq barcha tasdiqlar har qanday turdagi transport vositalariga, shu jumladan shinalar qo'llanilgan, qo'llanilayotgan yoki qo'llanilishi mumkin bo'lgan tirkamalar yoki boshqa turdagi shassilar, qurilmalar va moslamalarga nisbatan qo'llaniladi.

1.6 «Birinci rezinotexnika zavodi» XK MChJ uchinchi shaxslar bilan kelishmasdan ushbu hujjatga o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ushbu hujjatning amaldagi versiyasi www.brz.uz saytida joylashgan.

«Birinchi rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalar		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 4-sahifa

2. ATAMALAR

Ushbu hujjatda quyidagi atamalar va ta'riflardan foydalaniladi:

Shina – avtomobil massasini ushlab turish va o'zgarishlar bilan kechadigan yuklamani ko'tarishga mo'ljallangan g'ildirak gardishidagi elastik qobiq; u qulaylikni ta'minlaydi (yo'lning notekisliklaridan amortizatsiya qiladi); avtomobil yoki boshqa transport vositasining yo'l bilan tishlashishiga (ilashishiga) va harakat yo'nalishini belgilashga yordam beradi. Shina odatda quyidagi tarkibiy qismlardan (detallar va elementlardan) iborat:

Karkas — shinaning asosiy kuch elementi bo'lib, qoida tariqasida, bort halqalariga mahkamlangan bir yoki bir nechta rezinalangan kord qatlamlaridan iborat. Kord — tabiiy yoki sintetik tolalar asosida yasalgan qalin asos iplari va siyrak arqoq iplaridan iborat mato yoxud ingichka po'lat iplardir (metall kord);

Breker — shina karkasi bilan protektori o'rtasida joylashgan, bir necha qatlamli rezinalangan metall yoki boshqa korddan iborat ichki detal (tarkibiy qism). Breker avtomobil yo'lda harakatlanayotganda shinaga tushadigan zarbali yuklamalarni yumshatish uchun xizmat qiladi;

Neylon bandaj – konstruksiyani tortib turish uchun shina brekeri ustiga o'raladigan rezinalangan tekstil kord tasmasi;

Protektor — yo'l bilan tishlashishni ta'minlaydigan va karkasni shikastlanishdan himoya qiladigan, qoida tariqasida, relyefli naqshga ega bo'lgan shinaning tashqi rezina qismi;

Bokovina — shina karkasini tashqi shikastlanishlardan himoya qiluvchi, shinaning yon tomonida joylashgan qoplovchi rezina qatlami;

Shina borti — pnevmatik shinaning g'ildirak gardishiga (obodiga) mahkamlanishini ta'minlaydigan qattiq qismi. Bort o'z navbatida karkas bilan o'ralgan va yon devor bilan qoplangan bort qanotidan iborat.

G'ildirak — avtomobil massasidan tushadigan yuklamani qabul qiluvchi va aylanuvchi momentni uzatuvchi aylanma element. G'ildirak shina va gupchak

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 5-sahifa

(stupitsa) o'rtasida joylashadi. Odatda g'ildirak ikki asosiy qismdan — gardish (obod) va diskdan iborat.

Obod — g'ildirakning shina kiydiriladigan va shina tiriladigan qismi.

Disk — avtomobil gupchagi (stupitsasi) va gardish o'rtasidagi bog'lovchi element bo'lgan g'ildirak qismi. Gardish va disk bir-biridan ajraladigan konstruksiyaga, shuningdek, monolit yoki payvandlangan yaxlit konstruksiyaga ega bo'lishi mumkin.

Yakkalik g'ildirak — gupchakka o'rnatilgan va bitta shinani ko'tarib turuvchi g'ildirak.

Qo'shaloq g'ildirak — avtomobilning bitta gupchagiga o'rnatilgan ikkita yakkalik g'ildirakdan iborat g'ildirak.

3. SHINALARNI TAMG'ALASH

3.1 Shinaning tamg'asi shina ishlab chiqarilayotgan me'yoriy hujjat talablariga yoki yetkazib berish shartnomasi shartlariga mos kelishi kerak. Har bir shinaga odatda quyidagi tamg'alar tushiriladi:

3.1.1 shina belgisi - uning asosiy o'lchamlari va karkas konstruksiyasining shartli belgisi. Shinalar millimetrdagi, dyuymda ifodalangan yoki aralash, millimetr va dyuymlardagi belgilarga ega bo'lishi mumkin, radial konstruksiyadagi shinalar uchun esa "R" harf indeksi qo'yiladi. Diagonal konstruksiyadagi shinalar uchun harf indeksi qo'yilmaydi. Past profilli va o'ta past profilli shinalar uchun belgida seriya (shina profili balandligining uning kengligiga nominal nisbati) foizlarda ko'rsatiladi;

3.1.2 yakkalik va qo'shaloq g'ildiraklar uchun yuk ko'tarish qobiliyati indeklari (LI - Load Index) - shinaga ruxsat etilgan maksimal yuklamani belgilovchi karkas mustahkamligining shartli belgisi. Shuningdek, "PR" yoki "Ply ratio" (karkas mustahkamligining shartli belgisi) bo'lishi ham mumkin. Yuk ko'tarish qobiliyati indeklari ETRTO/ISO standartlariga mos keladi;

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 6-sahifa

3.1.3 tezlik toifasi indeksi (SI — Speed Index) — shinaning nominal yuklama ostida bardosh bera oladigan eng yuqori barqaror tezligini bildiruvchi harfli belgi. Tezlik indeksleri ETRTO/ISO standartlariga muvofiq belgilanadi. Masalan: «T» — 190 km/soat, «Y» — 300 km/soat;

3.1.4 BMT YIKning 30, 54, 117, 164-sonli yoki boshqa qoidalariga muvofiq shina turini ma'qullash haqida xabar bergan mamlakat raqami ko'rsatilgan "E" rasmiy tasdiqlash belgisi;

3.1.5 ishlab chiqaruvchi mamlakat;

3.1.6 shina ishlab chiqaruvchi firmaning tovar belgisi va (yoki) nomi;

3.1.7 savdo belgisi (shina modeli);

3.1.8 agar mavjud bo'lsa, standart belgisi (tasdiqlangan yili ko'rsatilmagan holda);

3.1.9 agar mavjud bo'lsa, shinaning tartib raqami;

3.1.10 ishlab chiqarilgan sanasi, u to'rtta raqamdan iborat bo'lib, birinchi ikkitasi haftaning tartib raqamini, oxirgi ikkita raqam shinaning ishlab chiqarilgan yilini bildiradi;

3.1.11 "Radial" yozuvi - radial shinalar uchun;

3.1.12 yo'naltirilgan protektor naqshiga ega shinalarda aylanish yo'nalishi belgisi (strelka yoki "ROTATION" yozuvi);

3.1.13 "Tubeless" yozuvi - kamerasiz shinalar uchun;

3.1.14 "Steel" yozuvi - brekerida metall kord bo'lgan shinalar uchun;

3.1.15 "Reinforced" yoki "Extra Load" yoki "XL" yozuvi - kuchaytirilgan shinalar uchun;

3.1.16 "Run Flat" yozuvi yoki muqobil belgilar ("RFT", "ZP", "Flat Run" va boshqalar) – havosi chiqqan holatda harakatlanish imkoniyatiga ega bo'lgan shinalar uchun;

3.1.17 "M+S" yoki "M(.)S" belgisi - qishki protektor naqshiga ega shinalar uchun;

«Birinchí rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalarí		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 7-sahifa

3.1.18 protektorning yelka qismida eskirish indikatorlari joylashganligini ko'rsatuvchi "TWI" harflari yoki boshqa ramz;

3.1.19 agar mavjud bo'lsa, milliy muvofiqlik belgisi;

3.1.20 "C" harfi - faqat yengil yuk avtomobillari va o'ta kichik sig'imli avtobuslar shinalari uchun asosiy o'lchamlar va karkas konstruksiyasi belgisidan keyin qo'yiladi.

3.1.21 "psi" yoki "kPa" dam berish bosimi - faqat belgisida "C" indeksi bo'lgan yengil yuk avtomobillari va o'ta kichik sig'imli avtobuslar shinalari, shuningdek, yuk avtomobillari shinalari uchun sinov bosimini ko'rsatish;

3.2 Yengil avtomobillar uchun shinaning yon devoridagi belgilarni shifrdan yechish: Bars 195/55 R16 UZ 200 Steel Radial 87 H Tubeless 0225 Made in Uzbekistan, bu yerda:

3.2.1 195 - shinaning millimetrdagi nominal profil kengligi belgisi;

3.2.2 55 - seriyasi (profil balandligining uning kengligiga foizdagi nominal nisbati);

3.2.3 R - radial shinaning harf indeksi;

3.2.4 16 - gardishning dyuymdagi nominal diametriga mos keladigan shinaning o'rnatish diametri belgisi;

3.2.5 Bars – brend, tovar belgisi;

3.2.6 UZ200 - shina modeli, savdo belgisi, tijorat nomi;

3.2.7 Steel - brekerdagi metall kord;

3.2.8 Radial - radial shina;

3.2.9 87 - yuk ko'tarish qobiliyati indeksi;

3.2.10 H - tezlik toifasi indeksi;

3.2.11 Tubeless - kamerasiz shina;

3.2.12 0225 - ishlab chiqarilgan sanasi, bu yerda: 02 - shina ishlab chiqarilgan yil boshidan hisoblanganda haftaning tartib raqami; 25 - ishlab chiqarilgan yilning oxirgi ikkita raqami - 2025;

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 8-sahifa

3.2.13 Made in Uzbekistan - shina ishlab chiqarilgan mamlakat (O'zbekiston).

3.3 Shuningdek, shinaga qo'shimcha ravishda rezina aralashmasida iz (otisk) ko'rinishida ham, stikerlar (etiketkalar) va boshqa amalga oshirish shakllarida ham boshqa tamg'alar va belgilar tushirilishi mumkin.

4. SHINALARNI QABUL QILISH

4.1 Shinalarni qabul qilish ishlab chiqarish-texnika maqsadlaridagi mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha amaldagi nizomlar va yo'riqnomalarga, milliy standartlar va texnik shartlar talablariga, shuningdek, shinalarni yetkazib berish shartnomasi shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2 Qabul qiluvchi tomon shinalarni qabul qilish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashi va qabul qilinayotgan shinalarning sifat hamda miqdor bo'yicha kamchiliklari bor-yo'qligini tekshirish uchun ularning holatini tegishli ravishda ko'zdan kechirishi shart.

5. SHINALARNI TASHISH VA SAQLASH

5.1 Shinalarni saqlash va tashishda ularga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak: kislorod, ozon, yorug'lik, issiqlik, neft mahsulotlari, organik erituvchilar, mineral moylar, moylash materiallari, yoqilg'i, kislotalar, ishqorlar; mis yoki korroziyalanuvchi moddalar bilan uzoq vaqt tutashib turish; uzoq muddatli bir tomonlama yuklama, bukilishlar, qisilish, mahsulotlarning bir-birining ustiga uyulishi, mahsulotlarning keskin bo'rtib chiqqan notekis yuzalarga tiralishi.

5.2 Ochiq mashinalarda va ochiq harakatlanuvchi tarkibda tashishda shinalar quyosh va namlik ta'siridan (brezent, polietilen plyonka yoki bunday ta'sirdan himoya qiluvchi boshqa yopuvchi materiallar bilan) himoyalangan bo'lishi kerak. Qo'llaniladigan qadoqlash usuli (agar foydalanilsa) kondensat paydo bo'lishiga olib kelmasligi kerak.

«Birinchii rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidolari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 9-sahifa

5.3 Shinalarning harakatlanishi bortlar va shina yon devorlarining deformatsiyalanishini istisno qiladigan tarzda ta'minlanishi kerak. Shina paketlarini, ya'ni ustma-ust taxlangan shinalarni tashishda shinalar vertikal holatda bo'lishi kerak.

5.4 -30°C dan past haroratlarda tashilayotgan shinalarni zarba va deformatsiyalardan ayniqsa ehtiyot qilish kerak.

6. SHINALARNI OMBORDA YUKLASH VA TUSHIRISH

6.1 Yuklash va tushirish jarayonida shinalarni 1,5 metrdan yuqori balandlikdan tashlash taqiqlanadi. Shinalarning bunday balandlikdan tushishi bort halqalarining shikastlanishiga va egilishiga olib kelishi mumkin. Bunday shikastlanishga ega bo'lgan shinalarni o'rnatish va bevosita maqsadida ishlatish taqiqlanadi.

6.2 Yuklash-tushirish jarayonlari shinalarning iflos, qo'pol yuzalar va shinalarda iz qoldirishi mumkin bo'lgan moslamalar bilan aloqasini istisno qiladigan tarzda tashkil etilishi kerak.

6.3 Shinalarni ko'tarish, ag'darish va ko'chirishda shinning bort qismidan ilgak, tros yoki zanjir bilan ushlab harakatlantirish taqiqlanadi.

6.4 Tashish va yuklash-tushirish ishlarini atrof-muhitning juda past haroratlarida (-30°C dan past) amalga oshirishda alohida ehtiyotkorlikka rioya qilish va shinning kuchli deformatsiyasiga olib keladigan operatsiyalardan (tashlash, qisish, baland ustunlarga taxlash, o'tkir jismlarga urilish va boshqalar) qochish kerak, chunki bu shinalarning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

7. SHINALARNI SAQLASH

7.1 Shinalarni yopiq, quruq, salqin va yaxshi shamollatiladigan xonada saqlash kerak. Omborxonalarda begona narsalar bo'lmasligi, qorong'ilashtirilgan bo'lishi, yong'in xavfsizligi talablariga mos kelishi va yuk ko'tarish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 10-sahifa

7.2 Gardishga (obodga) o'rnatilmagan shinalar vertikal holatda stellajlarda, poddonlarda yoki tekis polda saqlanishi kerak. Metall qafaslarga vertikal yoki «archa» shaklida taxlashga ruxsat etiladi. Har qanday turdagi taxlashda deformatsiyaning oldini olish uchun shinalarni saqlash balandligi qafasning yuqori gabaritidan oshmasligi kerak.

7.3 Gardishlarga o'rnatilgan shinalarni palletlarda, maksimal balandligi 1,6 metr bo'lgan ustun (stopka) shaklida gorizontal holda saqlashga ruxsat etiladi.

7.4 O'rnatilmagan shinalarni balandligi vertikal bo'yicha 1,6 metrdan oshmaydigan shtabellarda saqlashga ruxsat etiladi. Bunda shinalarning pallet o'lchamlaridan 10 sm dan ortiq osilib turishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Shinalarni ustun qilib saqlashda balandligi 4 va undan ortiq shinalardan iborat ustunlar polietilen plyonka bilan mahkamlanishi kerak.

7.5 Shinalarni saqlash uchun yuk ko'taruvchi yuza (saqlash turiga qarab qafas, poddon, stellaj tubi) toza, tekis, o'tkir qirralarsiz, singan elementlarsiz, bo'rtib chiqqan mixlarsiz, mahkamlanmagan elementlarsiz, o'tkir chetlarsiz va saqlash paytida shinalarning mexanik shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa nosozliklarsiz, shuningdek, loy, zang va boshqa yot moddalarsiz bo'lishi kerak. Shina yuza bilan tutashgandan so'ng unda izlar va begona moddalar qolmasligi kerak.

7.6 Shinalarni saqlash va tashish uchun ishlatiladigan stellaj tizimlari, qafaslar, poddonlar va boshqa konstruksiyalar barqaror, ishonchli mahkamlangan hamda soz bo'lishi kerak. Taxlash shinalarning saqlash paytidagi holati barqarorligini ta'minlashi va ularning tasodifan tushib ketishi yoki sirpanib ketishini istisno qilishi kerak.

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 11-sahifa

7.7 Ayriqli yuklagichlardan (vilochniy pogruzchik) foydalanish ushbu faoliyat sohasidagi amaldagi milliy qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi kerak.

7.8 Foydalanilgan va kelgusida ishlatish uchun yaroqli bo'lgan shinalar saqlashga qo'yishdan oldin kirdan yaxshilab tozalanishi, shuningdek, karkas yoki protektorga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan begona jismlar (toshlar, mixlar va boshqa elementlar) bor-yo'qligi tekshirilishi kerak. Shinalarni saqlashga joylashtirishdan oldin barcha topilgan jismlar olib tashlanishi kerak.

7.9 Shinalarni ko'chada saqlash taqiqlanadi; atmosfera yog'ingarchiliklari, quyosh nurlari, chang, namlik va ifloslanishlarning shinalarga bevosita ta'siri istisno qilinishi kerak. Qo'llaniladigan qadoqlash usuli (agar foydalanilsa) kondensat hosil bo'lishiga olib kelmasligi kerak.

7.10 Shinalar saqlanadigan hududda harorat $+35^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'lmagan, afzalrog'i 5 dan 25°C gacha darajada saqlanishi kerak. Shinalarni qorong'i joyda, taxminan $+15^{\circ}\text{C}$ haroratda saqlash maqbuldir. Belgilangan me'yorlardan tashqari haroratda uzoq vaqt saqlanganda rezinaning xususiyatlari o'zgarishi va shinalarning funksional xususiyatlariga ta'sir qilishi mumkin.

7.11 Namlik. Shinalarni saqlashda yuqori namlik va kondensat paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak; namlik 80% dan oshmasligi kerak.

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalar		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 12-sahifa

7.12 Shinalarni saqlash xonalari harorat va namlikni qayd etuvchi asboblarni bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Iqlim ko'rsatkichlarining muntazam monitoringi va ro'yxatga olinishini ta'minlash kerak; harorat va namlik nazorati haftada kamida bir marta ma'lumotlarni avtomatik yig'ish imkoniyati bilan butun ombor maydonini qamrab oladigan sozlangan ro'yxatga olish tizimi orqali amalga oshiriladi. Avtomatik ro'yxatga olish imkoniyati bo'lmaganda, harorat har bir ombor xonasi uchun haftada bir marta nazorat varag'ida (chek-list) qayd etilishi kerak. Harorat belgilangan me'yorlardan chetga chiqqan taqdirda, uni normallashtirish uchun zudlik bilan choralarni ko'rish, jumladan isitish, shamollatish yoki konditsioner tizimlarini sozlash, shuningdek, xonaning germetikligini nazorat qilish zarur. Shinalarni saqlash sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun harorat ruxsat etilgan diapazondan chiqmasligini ta'minlash muhimdir.

7.13 Shinalar saqlash paytida isitish moslamalaridan kamida 1 m uzoqlikda joylashtirilishi kerak. Omborxonalaridagi isitish moslamalari to'silgan (ekranlangan) bo'lishi kerak; xonani issiqlik to'plari bilan isitishda issiq havo oqimini shinalarga yo'naltirish taqiqlanadi.

7.14 Yoritish. Shinalar to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari va kuchli sun'iy yoritishdan, ayniqsa yuqori ultrabinafsha nuriga ega bo'lgan manbalardan himoyalangan bo'lishi kerak.

7.15 Kislorod va ozon. Ozon shinalarga kuchli buzuvchi ta'sir ko'rsatadi. Omborda ozon ajratib chiqaruvchi uskunalarni, masalan, lyuminessent yoki simob lampalar, yuqori kuchlanishli elektr uskunalari, elektr dvigatellar yoki uchqun yoxud elektr razryadlari keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa elektr uskunalari bo'lmashligi kerak. Shinalar saqlanadigan joylarda payvandlash ishlarini olib borish qat'iy cheklanishi va faqat alohida holatlardagina qo'llanilishi kerak. Shinalar payvandlash uchqunlaridan himoyalangan bo'lishi kerak; chaqmoq vaqtida va undan keyin 2-3 soat davomida havodagi ozon miqdorining keskin oshishi sababli omborlarni shamollatish taqiqlanadi.

«Birinchi rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalar		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 13-sahifa

7.16 Deformatsiya. Imkoniyat bo'lsa, shinalar erkin holatda, ya'ni boshqa obyektlarning tashqi ta'sirisiz saqlanishi kerak. Uzoq saqlash natijasida yuzaga kelgan tashqi deformatsiya shinalarga havo kiritilgandan keyin yo'qolishi mumkin.

7.17 Erituvchilar, yoqilg'i, yonilg'i-moylash materiallari, kimyoviy moddalar, tarkibida kislota bo'lgan vositalar, dezinfeksiya vositalari va boshqa agressiv moddalar shinalar bilan birga omborxonada saqlanmasligi kerak. Shinalar har qanday erituvchilar, moylar va moylash materiallarining qisqa muddatli ta'siridan ham himoyalangan bo'lishi kerak.

7.18 Yengil yoki yengil yuk avtomobili shinalari «archa» shaklida qafaslarda yoki ustun shaklida qafaslar yoxud palletlarda uzoq vaqt saqlanganda, 12 oydan ortiq saqlanayotgan shinalarning holatini baholash uchun kerakli malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb qilgan holda, har 6 oyda kamida bir marta tanlab vizual ko'rikdan o'tkazishni tashkil qilish kerak. Ushbu mutaxassislarning xulosasi asosida, zarurat tug'ilsa, shinalarni qayta taxlash to'g'risida qaror qabul qilinishi lozim.

7.19 Barcha ombor operatsiyalari davomida shinalar toza va yorliqlari shikastlanmagan holda saqlanishi kerak.

8. AVTOMOBILLARNI SHINALAR BILAN BUTLASH (KOMPLEKTLASH)

8.1 Avtomobilni pnevmatik shinalar bilan o'lchamlari, modellari, yuk ko'tarish qobiliyati (yuk ko'tarish indeksi, qatlamlik me'yori), tezligi, protektor naqshi turi bo'yicha har bir aniq rusumli va modeli avtomobil, seriyali avtomobillar uchun tirkama bo'yicha tanlash va butlash avtomobildan foydalanish bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

8.2 Transport vositasiga o'rnatilgan shinalar shina ishlab chiqaruvchisi tomonidan tavsiya etilgan gardish kengligiga mos kelishi kerak. Noto'g'ri kenglikdagi gardishli shinalardan foydalanish avtomobilni boshqarish xususiyatlarining o'zgarishiga, protektorning notekis eskirishiga, osma (podveska)

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalar		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 14-sahifa

elementlariga ortiqcha yuk tushishiga va shinaning muddatidan oldin ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Shina ishlab chiqaruvchilari va yetkazib beruvchilari ushbu Qoidalar buzilgan holda foydalanilgan shinalar bo'yicha e'tirozlarni qabul qilmaydi.

8.2.1 Gardish va qo'shaloq o'rnatishda minimal masofa (D_{min}): O'rnatish gardishining kengligi shina ishlab chiqaruvchisi yoki ETRTO standarti tomonidan ko'rsatilgan diapazonda bo'lishi kerak (odatda tavsiya etilgandan $\pm \frac{1}{2}$ dyuym). Bitta gupchakka (stupitsa) o'rnatilgan bir juft shina uchun ichki yon devorlar o'rtasidagi minimal masofa D quyidagi formula orqali aniqlanadi: $D \geq S + 2 \times T + 10 \text{ mm}$, bu yerda: S — tavsiya etilgan gardishdagi shinaning haqiqiy kengligi, mm; T — "yon devor ishlashi uchun me'yoriy tirqish" (yengil avtomobillar uchun 6–8 mm, yuk avtomobillari uchun 10–13 mm); 10 mm — dinamik urilish uchun zaxira. Misol: 295/80 R22.5 shinasi uchun: $S \approx 298 \text{ mm}$, $T = 13 \text{ mm} \rightarrow D_{min} \approx 298 + 2 \cdot 13 + 10 \approx 334 \text{ mm}$. Sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanilganda D qiymatiga $\geq 25 \text{ mm}$ qo'shiladi.

8.3 Transport vositasining bitta o'qiga har xil xususiyatlarga ega shinalarni, jumladan, o'lchami, konstruksiyasi (radial, diagonal, kamerali, kamerasiz), tezlik toifasi, yuk ko'tarish indeksi, protektor naqshi turi, mavsumiyligi (qishki va qishki bo'lmagan), shuningdek kelib chiqishi (yangi, tiklangan, chuqurlashtirilgan protektor naqshli) turlicha bo'lgan shinalarni o'rnatishga ruxsat etilmaydi.

8.4 Avtomobilning qo'shaloq g'ildiraklarida shinalarning normal ishlashini ta'minlash uchun yuklamaning notekis taqsimlanishi va tez eskirishining oldini olish maqsadida, protektorning eskirish darajasi va tashqi diametridagi farq minimal bo'ladigan qilib shinalarni tanlash tavsiya etiladi.

8.5 Avtomobillarni yuqori o'tuvchanlikka ega bo'lgan va yo'naltirilgan protektor naqshli shinalar bilan butlashda g'ildirakning shina yon devorida joylashgan strelka ko'rsatmasiga muvofiq aylanishini ta'minlash zarur. Asimmetrik yo'naltirilmagan protektor naqshli shinalarni o'rnatishda tashqi tomoni

«Birinchii rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 15-sahifa

avtomobildan tashqariga qaratib o'rnatilishini ta'minlash kerak, bunda aylanish yo'nalishi ahamiyatga ega emas.

8.6 Qorli va muzli yo'llarda yaxshiroq tishlashish uchun sirpanishga qarshi tishlar (shiplar) bilan jihozlangan qishki shinalardan foydalanish tavsiya etiladi.

8.7 Sirpanishga qarshi tishli shinalar ishlatilganda avtomobilning barcha g'ildiraklariga (shu jumladan zaxira g'ildiragiga ham) o'rnatiladi. Tishli shinalarning o'rnini almashtirish texnik zarurat tug'ilganda g'ildirakning aylanish yo'nalishini o'zgartirmasdan bajariladi.

8.8 Yumshoq tuproqlarda va yo'lsizlik sharoitida ishlatiladigan avtomobillar yuqori o'tuvchanlikka ega protektor naqshli shinalar bilan butlanishi kerak. Bunday shinalardan qattiq qoplamali yo'llarda uzoq vaqt foydalanish tavsiya etilmaydi.

8.9 Yuridik shaxslarning avtomobillariga o'rnatilgan shinalar ushbu avtomobillarga biriktirilishi va bu holat 5-ilovaga muvofiq shinalar ishlashini hisobga olish kartochkalarida yoki ushbu korxonalarning ichki talablari bo'yicha boshqa turdagi kartochkalarda qayd etilishi kerak. Bunda shinalardan foydalanish masofasi (probeg) me'yorlarini shina egasi foydalanishdan olingan shinalarning o'rtacha statistik masofasi asosida mustaqil ravishda belgilaydi.

8.10 Shinalardan foydalanishda ishlab chiqaruvchi tomonidan maksimal yuklama, tezlik yoki qaytish yelkasi (plecho otkata) bo'yicha belgilangan cheklovlarga rioya qilish kerak. Belgilangan parametrlardan oshib ketish shinaning qizib ketishiga, karkas mustahkamligining pasayishiga va yo'l bilan tishlashish xususiyatlarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Ushbu cheklovlarga rioya etish uchun javobgarlik transport vositasi egasi zimmasiga yuklatiladi.

9. SHINALARNI MONTAJ VA DEMONTAJ QILISH QOIDALARI

9.1 Shinalarni montaj va demontaj qilish ishlari shinamontaj bo'limida maxsus uskunalar, moslamalar va asboblari, shuningdek, ushbu qoidalarining 7-ilovasida ko'rsatilgan yo'riqnomalarni qo'llagan holda bajarilishi kerak.

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 16-sahifa

9.2 Faqat soz, toza, quruq, o'Ichamlari va turlari bo'yicha mos keladigan shinalar, kameralar va gardish tasmalar, gardishlar va ularning elementlari montaj qilinishi kerak.

9.3 Noldan past haroratda saqlangan shinalar montaj qilishdan oldin normal sharoitda xona haroratida 3-4 soat davomida ushlab turilishi kerak.

9.4 Shinalar montajdan oldin bort kengaytirgich yoki boshqa moslamalar yordamida tashqaridan va ichkaridan ko'zdan kechiriladi. Shinalarda ishlab chiqarish yoki foydalanish nuqsonlari aniqlangan taqdirda, ularni montaj uchun ishlatishga ruxsat etilmaydi. Begona jismlar (toshlar, mixlar va boshqalar) shinadan olib tashlanishi kerak.

9.5 Shinani gardishga o'rnatishdan oldin shina bortini va gardishning o'rnatish joyini shinamontaj pastasi (moylash moddasi) bilan yog'lash kerak.

9.6 Gardishlar va ularning elementlarida nuqsonlar: qiyshayishlar, deformatsiyalar, yoriqlar, o'tkir qirralar va g'adir-budurliklar, shina bilan tegib turgan joylarda zang aniqlanganda ular montajga qo'yilmaydi. Shina bilan tegib turadigan zonadagi gardishlar yuzasi loydan, begona moddalardan, zangdan tozalangan va metall uchun lak yoki bo'yoq bilan bo'yalgan bo'lishi kerak.

9.7 Har bir shina montajidan so'ng yig'ilgan g'ildiraklarni balanslash kerak va har ikkinchi texnik xizmat ko'rsatishda buni amalga oshirish tavsiya etiladi. Balanslash g'ildiraklarni avtomobildan yechib olingan holda yoki statsionar yoxud ko'chma dastgohlar yordamida bevosita avtomobilda amalga oshiriladi. Balanslashdan oldin shinalar yuvilishi hamda kir va begona jismlardan tozalanishi kerak.

9.8 Zolotniklarni ifloslanish va shikastlanishdan himoya qilish uchun barcha ventillar metall, plastmassa yoki rezina qopqoqchalar (kolpachoklar) bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

9.9 Ventillarga qo'yiladigan talablar (ish bosimi > 6 bar). 6,0 bardan yuqori ish bosimiga mo'ljallangan kamerasiz shinalar metall ventillar yoki ko'rsatilgan

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 17-sahifa

chegarasi 10 bardan past bo'lmagan «HP» sinfidagi rezina ventillar bilan ta'minlanishi kerak. Standart rezina ventillardan (TR413/TR414 turi) faqat $\leq 4,5$ bar bosimda foydalanishga ruxsat etiladi. 4,5–6,0 bar oraliq diapazoni uchun TR600HP rezina ventili yoki uning pasport chegarasi ≥ 8 bar bo'lgan analogidan foydalanishga ruxsat etiladi (ETRTO Valve-04 standartiga qarang).

9.10 Avtomobil o'qiga qo'shaloq g'ildiraklarni o'rnatishda, tashqi g'ildirakni yechmasdan ichki g'ildirak shinasidagi bosimni o'lchash yoki havo kiritish paytida ventillarga kirish imkoniyatini ta'minlash uchun ikkala g'ildirak diskklarining darchalarini moslashtirish kerak.

9.11 Montaj va demontaj ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi bo'yicha quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

9.11.1 shinalarga xizmat ko'rsatish mutaxassislari va haydovchilar tarkibi (jalb qilinganda) montaj-demontaj ishlari bo'yicha yo'riqnomadan o'tishlari kerak;

9.11.2 faqat ushbu rusumdagi avtomobil uchun belgilangan o'lchamdagi shinani gardish bilan yig'ishni amalga oshirish;

9.11.3 shinani gardishdan demontaj qilishdan oldin shinadan havoni to'liq chiqarib yuborish kerak;

9.11.4 boltli birikmalarga ega ajraladigan gardishlardagi shinalarga havo kiritishdan oldin barcha gaykalar avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish yo'riqnomasiga muvofiq bir xil tortilganligiga ishonch hosil qilish kerak; kamida bitta gaykasi yo'q bo'lgan gardishlardan foydalanishga ruxsat etilmaydi;

9.11.5 shinamontaj bo'limida shina va gardish yig'masiga havo kiritish bir necha bosqichda amalga oshiriladi, har bir havo kiritish bosqichi yakunlangach yig'ilgan g'ildirak holati nazorat qilinadi. **DIQQAT!** Shinalarga 3,5 bardan yuqori bosimda havo kiritish faqat xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni yig'ilgan g'ildirakning o'z-o'zidan demontaj bo'lishidan himoya qila oladigan maxsus metall to'siq (qafas) ichida amalga oshirilishi kerak;

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 18-sahifa

9.11.6 shinaga havo kiritishda kamera (shina) ventilini havo berish nuqtasidan keluvchi shlang bilan bog'laydigan va havoning zolotnik orqali o'tishini ta'minlaydigan maxsus uchliklardan foydalanish kerak;

9.11.7 havo kiritilgandan so'ng shina bortlari gardish tokchalariga zich o'tirmagan taqdirda, shinadan havoni chiqarib yuborish, uni demontaj qilish va shina bortlarining zich o'tirmasligiga sabab bo'lgan omilni bartaraf etish kerak, shundan so'ng shinani gardishga qayta o'rnatish, havo kiritish va bortlarning zichligini tekshirish lozim;

9.11.8 g'ildirakning o'qqa va radial urilishini kamaytirish maqsadida gardish va g'ildirakning boltli birikmalarini tortish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak: avval yuqori gaykani, so'ngra unga diametral qarama-qarshi bo'lgan gaykani burash, qolgan gaykalarni ham juft-juft (xochsimon) burash, avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish yo'riqnomasiga muvofiq barcha gaykalarni asta-sekin xuddi shu ketma-ketlikda tortish kerak;

9.11.9 yechib olinadigan g'ildirakni domkrat yordamida ko'tarishdan oldin avtomobilni qo'l tormozi bilan tormozlash, uzatmalar qutisida birinchi tezlikni yoqish (mexanik uzatmalar qutisi bo'lganda) va domkratga ko'tarishda avtomobilning dumalab ketishini oldini olish uchun qolgan g'ildiraklar ostiga tirgaklar qo'yish, g'ildirakni mahkamlash gaykalarini bo'shatish, shundan so'ng g'ildirakni domkrat bilan ko'tarish, gaykalarni burab olish va g'ildirakni yechish kerak.

9.12 Shinamontaj ishlarini olib borishda quyidagilar taqiqlanadi:

9.12.1 bosim ostida bo'lgan shinalarni gardishdan demontaj qilish;

9.12.2 agar shina bosim ostida bo'lsa, bort va qulflanuvchi halqalar holatini to'g'rilash;

9.12.3 qo'shaloq g'ildiraklardan birini ikkinchi qo'shaloq g'ildirakni bo'rtib chiqqan jism ustiga bostirish orqali domkratsiz avtomobildan demontaj qilish;

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 19-sahifa

9.12.4 montaj-demontaj ishlarida g'ildirak detallarini deformatsiya qilishi mumkin bo'lgan og'ir bolg'alar (kuvalda) va shunga o'xshash asboblardan foydalanishga ruxsat etilmaydi;

9.12.5 zolotniklarni turli xil tiqinlar bilan almashtirish.

10. AVTOTRANSPORT VOSITALARI EGALARI TOMONIDAN SHINALARGA QAROV

10.1 Yangi avtomobilni qabul qilib olishda, avtomobildagi shinalarni to'g'ri yoki qisman almashtirishda haydovchi quyidagilarni bajarishi shart:

10.1.1 avtomobilning Qoidalarining 8-bo'limiga muvofiq shinalar bilan to'g'ri butlanganligini tekshirish;

10.1.2 shinalarni qisman almashtirishda shinalarning texnik holatidan kelib chiqqan holda ularni tanlash va o'qlarga o'rnatish;

10.1.3 shinalar ishlashini hisobga olish kartochkalaridagi (5-ilova) yozuvlarning to'g'riligini tekshirish va kartochkalarga imzo chekish (yuridik shaxslar uchun);

10.1.4 shinalardagi bosimni tekshirish va zarur bo'lsa uni tavsiya etilgan me'yorgacha, zaxira shinada esa - ushbu shina modeli uchun ruxsat etilgan maksimal darajagacha yetkazish;

10.1.5 shinamontaj ishlari o'tkazilgandan keyingi dastlabki uch kun davomida keskin joydan qo'zg'alish, favqulodda tormozlash va dinamik manyovrlardan saqlanish (bu vaqt shinamontaj pastasining qurishi va gardishning shinaga nisbatan sirpanishining oldini olish uchun zarur).

10.2 Zaxira shinani avtomobilning harakatlanuvchi g'ildiragiga o'rnatishda uning shu o'qda joylashgan shinalarga mos kelishini tekshirish, zaxira shinaning yurgan masofasini shina ishlash kartochkasida (yuridik shaxslar uchun) hisobga olish uchun odometr ko'rsatkichini yozib olish, zarur bo'lsa zaxira shinadagi bosimni me'yoriga yetkazish kerak.

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 20-sahifa

10.3 Safarni boshlashdan oldin haydovchi quyidagilarni bajarishi shart:

10.3.1 shinalarni vizual ko'zdan kechirish;

10.3.2 gardishlar va g'ildiraklar mahkamlanishini tekshirish;

10.3.3 shinadan havo chiqayotgan bo'lsa, havo chiqish sababini aniqlash va bartaraf etish;

10.3.4 haftada kamida bir marta sovigan shinalardagi ichki bosimni tekshirish.

10.4 To'siqlarni yengib o'tish. Notekis yo'lda harakatlanayotganda, to'siqlarni (reklar, bordyurlar, chuqurliklar) kesib o'tayotganda tezlikni kamaytirish va ularni keskin zarbalarsiz va sirpanishlarsiz, silliq bosib o'tish tavsiya etiladi. To'siqlarni keskin bosib o'tish shinning shikastlanishiga, yo'l bilan tishlashishning pasayishiga va boshqaruvni yo'qotishga olib kelishi mumkin. Haydovchi xavfsiz tezlikni tanlash uchun avtomobilning og'irligini, yo'l sharoitlarini va shinalar turini hisobga olishi kerak.

10.5 Avtomobildan foydalanish jarayonida haydovchi quyidagilarni bajarishi shart:

10.5.1 g'ildiraklar sirpanib ketmasligi uchun avtomobilni joyidan silliq qo'zg'atish;

10.5.2 avtomobil bir tomonga tortganda uni darhol to'xtatish, tortish sababini aniqlash va bartaraf etish;

10.5.3 ichki bosimi noto'g'ri bo'lgan shinalarda harakatlanishga yo'l qo'ymaslik;

10.5.4 yo'l holatini kuzatib borish, o'tish qiyin bo'lgan joylarda (chuqur izlar, temir yo'l kesishmasi, yo'ldagi to'siqlar va boshqalar) harakat tezligini kamaytirish;

10.5.5 to'xtash joyiga, svetoforlar, shlagbaumlardan va boshqa to'siqlar oldiga yaqinlashayotganda keskin tormozlashga yo'l qo'ymaslik, manyovr qilishda tezlikni silliq pasaytirish va oshirish;

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalari		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 21-sahifa

10.5.6 g'ildiraklarning o'tkir metall va boshqa bo'rtib chiqqan narsalarga keskin urilishidan qochish, shinalarni shikastlamaslik uchun trotuar chetiga yoki boshqa bo'rtib chiqqan narsalarga taqab haydamaslik;

10.5.7 to'xtab turish joylarida protektorga, yon devorga, qo'shaloq shinalar orasiga tiqilib qolgan begona jismlarni (toshlar, shishalar va boshqalar) olib tashlash maqsadida shinalarni ko'zdan kechirish;

10.5.8 avtomobilning ko'rsatilgan yuk ko'tarish qobiliyatidan ortiqcha yuklanishiga yo'l qo'ymaslik, yukning bir maromda joylashtirilishini va uning ishonchli mahkamlanishini kuzatib borish (3-ilova); og'ir kichik o'lchamli yuklarni kuzovda barcha shinalarga bir xil yuk tushishini hisobga olgan holda joylashtirish;

10.5.9 mavsumiylik va yo'ldagi amaldagi vaziyatga qarab shinalarni o'z vaqtida almashtirishni kuzatish va tashkil qilish. Qishki shinalarni avtomobilga kuzda, harorat past darajadagi plyus haroratga yaqinlashganda, yo'lda sovuq tushishi va muz hosil bo'lishi ehtimoli paydo bo'lgunga qadar o'rnatish kerak. Yozgi shinalarni bahorda, harorat barqaror ijobiy zonada bo'lganidan va yo'lda muz hosil bo'lish ehtimoli yo'qolganidan keyin o'rnatish kerak. Avtomobilga o'rnatilgan shinalarning mavsumiyligidan qat'i nazar, o'tish davrlarida haydovchi ehtiyotkor bo'lishi va avtomobilni boshqarish uslubini yo'ldagi vaziyatga moslashtirishi kerak.

10.6 Avtomobildan foydalanish yakunlangandan so'ng har kuni haydovchi quyidagilarni bajarishi shart:

10.6.1 qopqoqchalar mavjudligini tekshirish maqsadida shinalar, gardishlar, shuningdek, ventillarni ko'zdan kechirish; protektor, yon devorlar va qo'shaloq shinalar orasidagi begona jismlarni olib tashlash;

10.6.2 ta'mirlanishi, utilizatsiyaga yuborilishi kerak bo'lgan shinalarni yechib olish;

10.6.3 protektor notekis eskirganda uning paydo bo'lish sababini aniqlash va bartaraf etish. Notekis eskirish holatida shinalarning kelgusida foydalanish uchun

«Birinci rezinotexnika zavodi» XK MCHJ		Angren sh.
Avtomobil shinalaridan foydalanish qoidalar		
Ishlab chiqildi: 2026-yil may		
Tahrir №	Ro'yxat №	45 dan 22-sahifa

yaroqliligini yuridik shaxslar uchun komissiya, jismoniy shaxslar uchun esa haydovchining o'zi mustaqil ravishda yoxud tashkilot qarori asosida belgilaydi.

10.7 Shinalar resursidan maksimal darajada foydalanish uchun haydovchi shinalardan foydalanish va ularga qarov qoidalariga rioya qilishi shart:

10.7.1 saqlash, butlash, montaj-demontaj ishlari ushbu Qoidalarning 7, 8 va 9-bo'limlari ko'rsatmalariga, shuningdek, transport vositalarini ishlab chiqaruvchi zavodlarning tavsiyalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak;

